

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI***

***FILOLOGIYA FAKULTETI***

***O'zbek adabiyoti kafedrası***

# **REFERATI**

**Mavzu: Anvar Obidjon – o'zbek bolalar  
adabiyotining iste'dodli vakili**

**TALABA Umarova Zulhumor**

**Qo'qon - 2011 yil**

I bob. Anvar Obidjon – o'zbek bolalar adabiyotining

iste'dodli vakili

1.2. Anvar Obidjon – serqirra ijodkor.....

1.2. Anvar Obidjon she'rlari – bolalar qalbi, ruhining yorqin ko'zgusi.....

II bob. Anvar Obidjon ijodida ruhiyat tasviri

2.1. Anvar Obidjonning «Oltin yurakli Avtomobil» qissasida inson ma'naviyati bilan bog'liq muammolarning ochib berilishi.....

2.2. Anvar Obidjon ertak va dostonlarida Vatan ozodligi va erk uchun kurash masalalarining aks etishi.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

## **I bob. Anvar Obidjon – o'zbek bolalar adabiyotining iste'dodli vakili.**

### **1.1. Anvar Obidjon – serqirra ijodkor.**

Anvar Obidjon 1947 yilda Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidagi so'lim qishloqlarning biri – Polosonda tug'ilgan, beg'ubor bolaligi shu joyda o'tgan. Qalbida hayotga, insonlarga, ona batiatga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ulari aynan o'sha maskanda uyg'ongan, ilk she'riy satrlari ham shu qishloqda yaratilgan.

Anvar Obidjon 1966 yilda Samarqand Moliya bilim yurtini tugatdi, so'ng harbiy xizmatga chaqirildi. Xizmatdan qaytgach, 1969 yildan boshlab o'z qishlog'idagi jamoa xo'jaligida, paxtachilik brigadalarining hisobchi bo'lib ishladi. O'z baxtini matbuotdan qidirgan Anvar Obidjon keyinchalik tuman gazetasiga adabiy xodim bo'lib ishga o'tadi, 1974 yilda Toshkent davlat universiteti (hozirgi Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti)ning jurnalistika fakul'tetiga sirdan o'qishga kiradi. O'qishni bitirgach, Farg'ona viloyati radiosida, «Mushtum» jurnali, «Kamalak» va «CHO'lpon» nashriyotlarida uzoq yil faoliyat ko'rsatdi. Hozir O'zbekiston televideniyasida jurnalistik va adiblik faoliyatini davom ettirmoqda.

Anvar Obidjonning ilk she'riy mashqlaridan biri – «SHkafcham» 6-sinfda o'qib yurgan kezarida maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar jurnali «G'uncha»da chop etilgan. SHundan so'ng yosh shoirning bolalar uchun turli mavzularda bitgan ko'pgina asarlari respublikamiz gazeta va jurnallarida tez-tez ko'rinishga boshladi.

1974 yilda Anvar Obidjonning bolalar uchun yozgan she'rlaridan iborat «Ona Er» kitobi chop etildi. Agar to'plamga kiritilgan she'rlarga adabiyotning yuksak badiiylik talablari asosida yondoshilsa, uni o'zbek bolalar she'riyatiga qo'shilgan muhim hissa, deya baholash qiyin. Chunki to'plamdagi she'rlarning ko'pchiligida yosh o'quvchilar ma'naviyatini boyitadigan yangi fikrlar deyarli uchramaydi. Bolalar she'riyatida qayta-qayta takrorlanib, shablonga aylangan tayyorga ayyor bo'lish, nafsi buzuvchilik, yalqovchilik, injiqlik, o'yinchoqlarni avaylamaslik kabi qusurlarni yomonlash kabi «g'oyalardan» nariga o'tilmagan va ular ta'sirli badiiy usullarda o'z ifodasini topmagan. Ammo kitobdagi «Sotqin baroq haqida» gi ertakda g'oyani ixcham shaklda ifoda etish, tabiatdagi jonsiz narsalar, turli hayvon, parranda va boshqa jonivorlarni odamlarday so'zlatish, qiyofalarini real chizish, bolalarbop kulgili vaziyatlar yaratish orqali kichkintoylar ma'naviy olamini boyitishga intilish, yangicha bir izlanish borligi sezilib turardi. Shoir keyinchalik xudi shu yo'ldan bordi...

Oradan olti yil o'tgach, 1980 yilda Anvar Obidjon o'zining ikkinchi she'riy to'plami –«Bahromning hikoyalari»ni o'quvchilar hukmiga havola etdi. Bu kitob shoirga katta shuhrat keltirdi. To'plamga kiritilgan asarlar o'zbek bolalar adabiyotiga kichkintoylar uchun nimalarni yozish va nima uchun yozish kerakligini, eng muhimi, qanday yozish lozimligini chuqur his eta olgan boshqacha ovozdagi shoir kirib kelganligidan darak berib turardi.

1980-2005 yillar oralig'ida shoir barakali ijod etdi. U o'z qalami kuchini faqat she'riyatda emas, adabiyotning nasr, teatr va kino dramaturgiyasi turlarida ham sinab ko'rdi. Ko'plab hikoyalar, qissalar, sahna asarlari yaratdi. Bu yillarda uning «Ey, yorug' dunyo» (1983), «Olovjon va uning do'stlar» (1983), «Ketmagil» (1985), «Bezgakshamol» (1985), «Masxaraboz bola» (1986), «Akang qarag'ay Gulmat» (1987), «Juda qiziq voqea» (1987), «Oltin yurakli Avtomobil» (1988), «Dahshatli meshpolvon» (1989), «Erlıklar» (1990), «Alamazon va Gulmat hangomalari» (1992),

«Ajoyibxona» (1993), «Meshpolvonning janglari» (1994), «Alisher ila Husayn yoki uch donov a o'g'ri» (1996), «Alamazon va Gulmat» (1998), «Oltiariq hangomalari» (1999), «Bulbulning cho'pchaklari» (2001), «Odobli bo'lish osonmi» (2001), «Bezgakshamoli-2» (2003), «O'q o'tmas bolakay» (2005) va boshqa kitoblari nashr etildi. Uning ayrim asarlari ru tiliga o'g'irilib, «Alamazon i ego pexota» (1984), «Grozniy Meshpalvan» (1991) nomlarida bosilib chiqdi.

Anvar Obidjon asarlarining mavzu va mazmuni rang-barang, badiiy obraz yaratish usullari xilma-xil. Bolalar tabiatini nozik his etishi juda aniq seziladi. U o'z asarlarini qanday shaklda, qaysi janrda yozishidan qat'iy nazar, bolalarning «kulgiga o'ch xalq» ekanligini hech qachon unutmaydi.

Masalan:

Katta qizil burunli  
Qiziqchiman, bilasiz  
Aybingizni gapirsam,  
Hafa bo'lmay kulasiz,  
Vax-xax-xa!  
Gapirishdan qshrqanlar  
Olsin mening o'rnimni.  
Qarzga berib turaman  
Katta qizil burnimni,  
Vax-xax-xa!<sup>1</sup>

SHoirning o'zbek bolalar adabiyotiga olib kirgan yangiliklaridan yana biri-kichkintoylar uchun aruz vaznida asarlar yaratish an'anasini davom ettirdi. Ma'lumki, bizning mumtoz adabiyotimizda aruz etakchi vazndir. Undagi kata-kichik asarlarning, deyarli, hammasi aruzda yozilgan. Bunday asarlar orasida bolalar uchun maxsus yozilganlari ham ko'p. Masalan, Hamza Hakimzoda Niyoziyning pedagogik risolalaridan joy olgan she'riy

---

<sup>1</sup> A. Obidjon. O'g'rilangan pahlavon. T. «CHO'lpon» 2006 y 6-bet.

asarlarning ko'pchiligi aruz vaznida yozilgan. Uning «O'qish kitobi» (1914) darsligidan joy olgan. «Qalam», «Kitob», «Ilm», «Maktabdan» radifli asarlari shular jumlasidandir. Sobiq «SHo'rolar» davrida aruzga noto'g'ri munosabatda bo'lindi. Hatto uni qoralashdi. Lekin shoirlarimizning bu gaplarning butunlay noto'g'riligini o'zlarining aruzda yozgan nafis asarlari bilan isbotladilar. Aruz boshqa vaznlar bilan birga hamon o'z hayotini davom ettirmoqda.

Afsuski, o'zbek bolalar shoirlarining 30-yillardan keyingi avlodi aruzga ishonchsizlik bilan qaradilar, bolalar tushunmaydi, deb o'ylab, unga mutlaqo murojaat etmadilar.

Bu qadimiy an'anani Anvar Obidjon «Bulbulning cho'pchaklari» turkumida qayta tiriltirishga harakat qildi. SHoir unga yozgan muqaddimada «SHe'rlarning shakli g'azalga o'xshaydi, ya'ni unda aruz qonun-qoidalariga to'liq rioya qilinmagan», deydi. Lekin g'azal shaklidagi bu asarlar juda nafis va go'zal bitilgan. U bolalar qalbida mumtoz adabiyotimiz namunasiga nisbatan qiziqish uyg'otishda ma'lum ahamiyatga egadir.

#### Salomnomalar.<sup>2</sup>

Qo'rqoqlarning qo'rqog'i g'ilay Quyonga salom,  
Yo'qdur yaqin o'rtog'i, sho'rlik CHayonga salom.

SHoxdan shoxga yugurgan, dumida uy supurgan,  
YOng'oq chaqib tipurgan sho'x Olmaxonga salom.

Arg'amchidek buralar, yaltoqlarga o'ralar,  
Qo'pg'uz o'tsa mo'ralar, bo'g'ma ilonga salom.

Xo'tikchanning qondoshi, ochlikka zo'r bardoshi,  
Kamroq bo'lsa ham oshi, erkin qulonga salom.

---

<sup>2</sup> A. Obidjon. O'g'rilangan pahlavon. «Salomnomalar» T. «CHO'lpon» 2006 y 63-bet

Nafsi o'lja tilagan, qo'lin qonga bulagan,  
Asta mo'ylov silagan pismiqlar Sirtlonga salom.

Turkumga kirgan asarlarda tabiat o'zgacha, yanada tarovatliroq ko'rsatiladi. Tabiat hodisalariga yanada chuqurroq nazar tashlashga, jozibali kuy-ohanglarda ifoda etishga intilish seziladi. Ayniqsa, yil fasllariga bag'ishlangan «Bahor», «YOz», «Kuz» kabi she'rlarda nafaqat tabiatdagi o'zgarishlar tasvirlanadi, balki hayotda hech narsa tasodifiy emasligi, hamma narsa qonuniyat tufayli yuzaga kelishi ko'rsatiladi. Masalan, bahor kelishi bilan qish izg'irinlari «zirillab» qochib ketadi, uning o'rniga esa, janubdan «gurillab» yoqimli iliq shamol kiradi; daraxtlar gullaydi, «chigirkalar chirillab» sayrashni boshlaydi, qushlar galasi qaytib keladi. «Qarg'a shamolga» jirrakilanib uchib ketadi va hakoza. SHu tariqa shoir tabiatning uzviylik qonun-qoidalarini bolalarga xilma-xil badiiy vositalar orqali mahorat bilan etkazadi. Ma'lumki, tabiatdagi uzluksizlik davomiylikni, davomiylik esa boqiylikni ta'minlaydi. «Bahor» asaridagi ana shu falsafiy fikr «YOz» she'rida davom ettiriladi. Quyoshning issiq taftidan tabiatdagi jamiki mavjudot: Ilondan tortib Tulkiyu G'ozgacha, Kaklikdan tortib, CHivinu Mushukkacha hamma-hammasi bahramand. Ular o'z go'shalarida tinch, osoyishta vash od yashamaoqdalar. Bu fikr bolalar qalbini allalovchi yoqimli kuy-ohangda ifoda etilgan:

Kaklik bashang kiyindi echib eski libosin,  
Uning chipor nimchasi tog' rangiga tushdi mos...  
Xachir yotar soyada, dumi haydar CHivinni,  
Quyosh nurin yalamoq Mushuk uchun buncha soz?...  
G'uncha iliq, gul iliq, borliq iliq, dil iliq.  
Bu faslni, Bulbulvoy, qancha sevsang, shuncha oz.

Anvar Obidjon o'zbek bolalar adabiyotida o'ziga xos maktab yaratgan shoirlardan biri hisoblanadi. Bu ko'proq uning turli buyumlar, jonzotlar, o'simliklar haqida yaratgan asaralarida ko'zga tashlanadi. G'azal shakli bitilgan «Bulbulning salomnomalari» o'zbek bolalar adabiyotida kata voqea bo'ldi. Bu asarda jonzotlarning o'ziga xos tomonlari ochib beriladi. Masalan, qo'rqqoq quyon, do'stsiz chayon, arg'amchidek buralib yuradigan ilon, tun er qaziydigan yumron tovuşdek chiroyli qizilishtonlarning tuzilishlari, hayot tarzlarini ochib berishlari bilan bolalarni mehnatkash, kamtar, odobli, o'qimishli, vatanparvar bo'lishiga undab keladi.

Bola borki, nurga intiladi. Quyoshga talpinib yashaydi. Negaki quyosh bor joyda, nur bor joyda ezgulik tantana qiladi. SHoirning «O'zimning quyoshim» asari xuddi shu ezgu maqsadni ilgari surishi bilan kitobxonga quvonch va ma'naviy yuksaklik shodlik, bag'ishlab kelmoqda.

She'r oddiy, sodda va samimiy misralarda bitilgan. Bolalar bo'r, ko'mir bilan yo'lka, yo'l, maydonchalarda quyoshning rasmini chizib qo'yganligini ko'p bor uchratganmiz. She'r xuddi shu voqeaga bag'ishlangan. SHoirning mahorati shundaki hayotda tez-tez uchrab turadigan ushbu hayotiy hayotiy manzaraga katta poetik mazmunni bolalarbop qilib singdirib yuborgan.

Ona quyosh, aksingni  
CHizdim yo'lakka.  
Sen hammaga mehribon,  
O'zing bo'lakcha.  
Nur tushmagan joylarda  
Kezarmish kulfat  
Yo'lagimda hech qachon  
Bosmasin zulmat.

Mazkur she'rdagi ona quyoshga nuri, yorug'lik bilan kulfat zulmatni qarama-qarshi qo'yib tasvirlanishi bolalarning poetik mazmunni tez tasavvur qilishlari va oson o'zlashtirishlariga imkoniyat yaratmoqda.

Anvar Obidjonning «Latifachi oyim» she'ri nafaqat shoirning balki so'nggi davr bolalar she'riyatining yaxshi namunalaridan biri hisoblanadi. Asarda bola ta'lim-tarbiyasida xalq og'zaki ijodining ahamiyati o'ziga xos tarzda poetiklashtiriladi. Xalq azal-azaldan farzandlarini alla, ertak, maqol, tez aytish, topishmoqlar aytib berish bilan tarbiyalanib kelgan. SHu bois sog'lom, tetik, pok, o'ktam, polvon, kichkintoylarda tabiat olamiga nisbatan bo'lgan qiziqishlarini o'n chandon oshirishga erishgan.

Anvar Obidjon bolalar uchun ajoyib hikoyalar, qissalar va dostonlar ham ijod etadi.

YOzuvchining hikoyalari, she'rlarida bo'lganiday, tuzilishi va kompozision qurilishi jihatdan juda ixcham, nihoyatda engil, qiziqarli o'qilishi bilan kichkintoylarni tezda o'ziga maftun etadi.

SHunisi xarakterliki, Anvar Obidjon she'rlaridagi ayrim qahramonlarining hayoti tasvirini o'z hikoyalarida ham davom ettiradi. YA'ni ularda ham bosh qahramon – hayvon va parrandalarning bolalari. Ular o'z dunyoqarashlaridan kelib chiqib, hayoti, quvonch va tashvishlari haqida sodda, samimiy tarzda so'zlab beradilar.

Jamiki jonzotlarning bolalari ham bu dunyoning har kunini o'zlari uchun kashf etadilar. Masalan, «Mushukchanning hikoyasi» qahramoni er yuzi tomdan ko'ra o'n besh marta, tog' oraga qaraganda kamida ming marta kattaligini «kashf etsa», och qoringa arii yutib yuborgan qurbaqa, uyqusirab turib ovqat eyishning oqibati yomon bo'lishini «kashf etadi». Agar jo'ja, dadasi Xo'rozning qip-qizil tojidan, viqor bilan yurishidan zavqlansa, nodonfe'l xo'tikcha o'zining aql va farosatiga qoyil qolib maqtanadi. YOzuvchining kichik-kichik ertak-hikoyalaridagi hayvonlar insonlar singari

xayol suradilar, fikrlaydilar, tevarak-atrofnı kuzatadilar, hayratlanadilar. Ularning xatti-harakatlari bolalarnı qiziqtiruvchi engil yumor vositasida tasvirlanadi. Misol uchun «Jo'janing hikoyasi» qahramoni so'zlariga diqqat qiliylik. Bu jo'ja «uka»lariga qaraganda bir daqiqa avval tuxumni yorib chiqqan: «Mendan keyin ukalarim ham birin-ketin tuxum pachaqlashga tushishdi. YOrug'likka chiqishgach, ular ham menga o'xshab ko'zlarini ocholmay turishdi. SHumshayib o'tirishganini ko'rib kulging qistaydi». Hikoya qahramonlari o'zlari haqida gapirar ekanlar, go'yo o'z shaxsiyatlarini tasdiqlab olayotgandek bo'ladilar. SHuning uchun ham o'quvchi ular timsolida aniq «shaxs»ni ko'rgandek bo'ladi. Bunday hikoyalar kitobxon-bolada jo'shqin, xushchaqchaq kayfiyat uyg'otadi. U atrofga tiyranroq boqib, bu dunyoda o'zidan-da kichiklar borligini bilib, ularni ehtiyot qilish, asrash-avaylash zarurligini his etadi.

SHoirning mahorati shundaki, u bola dunyoqarashidagi o'ziga xosliklarning tub-tubini ko'ra oladi. Ichki olamini, o'y-xayollarini, kichik qalbida kechayotgan ruhiy jarayonlarni noziy did bilan kuzatadi. Bir qaraganda, juda oddiy ko'rinadiki kichik-kichik she'rlarda Inson tabiati shakllanishining dastlabki bosqich jarayonlari keng ko'lamda tahlil etib beriladi. Samimiy yumor, engil hajv elimentlari yorqin ko'zga tashlanadi. SHoirning «Hali o'zim bolaman-ku!», «Sinchkov bola», «SHu ham filmi?» kabi o'nlab she'rlari shu jihatdan nihoyatda karakterlidir.

Dadajonim,	Axir kimga
Dadajon,	«Ota» mann?
Otim nega	SHuni o'yla-a-ab
Otajan?	YOtaman.

She'ni o'qir ekanmiz, endigina so'zlar ma'nosini anglay boshlayotgan bolakayning holati ko'z o'ngimizda keladi. Uning kutilmagan «muammo» li masala oldidagi o'ychanligi o'quvchining labida nurli tabassum paydo qiladi, qalbida kichkintoyga nisbatan issiq bir tuyg'uni uyg'otadi. «Baliqchining

ashulasi» da ham yuqoridagi she'rdagi kabi bola holati lo'nda, aniq tasvirlanib, kichkintoylar tabiatiga xos beg'ubor samimiyat bilan ifoda etiladi.

Nor o'tirar	Asta aytar
Qirg'oqda,	Ashula:
Ikki ko'zi	«Mehmonga kel,
Qarmoqda.	Akula!...»

Bolalar xarakterida uchraydigan bezarar aldamchilik, engil ta'magirlik, befoyda odamovilik, ortiqcha pismiqlik, sodda g'iybatchilik, o'ta mechkaylik mayda xudbinlik kabi «o'tkinchi kamchiliklar» ni avaylabgina fosh etish ham shoir ijodiga xos jihatlardan. U bolalar fe'lidan asorat qoldirishi mumkin bo'lgan bu salbiy xususiyatlarni qoralashga, qalbiga jarohat etkazadigan «ayovsiz satira» usullarini mutlaqo qo'llamaydi. Bu kamchiliklarni engil kulgi yordamida tuzatish mumkinligini muallif qattiq ishonadi. Mana, uning shunday she'rlaridan biri – «Sal yumshadi»:

- Olibsan-da	Toqatim yo'q
Muzqaymoq.	Arazga.
Oshna edik,	Bir yalab ko'r, ma...
Ja inoq...	Qarzga.

Dialogdan iborat bo'lgan ushbu she'rda ham ikki bolaning holatini, o'ziga xos tabiatini bema'lol tasavvur qilish mumkin.

Birinchi bolaning nutqidan ko'rinib turibdiki, u bir oz dimog'dor, lekin ta'magirlik ham yo'q emas – oshnasining muzqaymog'idan tatib ko'rish istagi bor. Buni ochiq aytishga esa, o'sha kibr-g'urur yo'l bermayapti. SHu tufayli, go'yo oshnasini mensimayotgan-dek, «Olibsan-da muzqaymoq?» deb gap boshlaydi. So'ng ta'na bilan so'zini davom ettiradi: «Oshna edik... Ja inoq...».

Ikkinchi bolaning nutqidan sezamizki, uning tabiatida kibru havo kamroq, ko'ngilchan, qo'li ochiq. O'rtog'ini xafa qilishni istamayapti va ayni

paytda muzqaymoqni qizg'anyapti. SHuning uchun faqat bolalarga xos muomala madaniyatini qo'llab:

«Arazga toqati yo'q»ligini ayta turib: «Bir yalab ko'r, ma... Qarzga», deb so'z qistirib o'tayapti. SHoir shu tarzda bolalar xarakteridagi fazilatu nuqsonlarni ularning nutqi orqali kuligili tarzda chizib berishga erisha olgan.

Anvar Obidjon faqat tabiatni tasvirlovchi, turfa xil, ramziy, majoziy obrazlar yaratuvchigina emas, balki ijodining kata qismida bolalar dunyosi, ruhiyatini ham tasvir etgan. Uning «Kulchalar» va «Botirvoyning kundaligi» turkumlaridagi qahramonlarning deyarli hammasi turli yoshdagi bolalardir. Bu she'rlarda bolalik tuyg'ularining sofligi, orzu-umidlarning beg'uborligi, tabiatan bir oz shumligi, quvnoqligi kata iste'dod bilan ochib beriladi, o'quvchini goh yayrab-yayrab kulishga, goh jimgina o'ylashga, fikrlashga, xulosalar chiqarishga undaydi.

CHakalakda sichqon

Bo'lib qoldi sulton.

To'ng'iz unga vazir,

Lashkarboshi – qoplon.

YAsovuli – Bo'ri,

Tulki xolla cho'ri.

Mushuk esa tomda

Tozalardi sho'ri.

Bugungi kunda Anvar Obidjonning o'nlab qissa va dostonlari ertak va dramalari bolalar qo'lidan tushmay kelayotir.

Bolalar yozuvchisi to'la ma'noda tarbiyachidir. Uning asarlari kelgusi avlodni insonning maslak va g'oyalar bilan qurollantirishda, dunyoqarashini shu ruhda tarbiyalash va shakllantirishda kata ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, kichik yoshdagi bolalar o'zidan kattalarga ergashish va taqlid qilish barobarida kitoblarni o'qib, ulardan bilib olgan va o'ziga yoqqan qahramonlaridek bo'lishga, ularday so'zlashishga intiladi. SHuning

uchun bolalar uchun yozuvchi ijodkorlar zimmasiga boshqalardan ko'ra og'irroq, jiddiyroq, yuksak mas'uliyat yuklanadi. SHu mas'uliyat va sharaflari majburiyatni chuqur his qiladigan bolalar yozuvchilari hatto har bir so'z yoki iborani ehtiyotkorlik bilan ishlatadilar.

SHu muhim masala bolalar yozuvchilarining diqqat e'tiborini hamisha o'ziga qaratishi lozim. Xususan, umumiy ta'lim va hunar maktabini isloh qilish, mukammallashtirish to'g'risidagi qarorlarda maktab bilan yozuvchilar aloqasini mustahkamlashga alohida urg'u beriladi. O'zbekiston xalq ta'limi vazirligining maktablarda ta'lim-tarbiya ishlarini yanada yaxshilash va mustahkamlash, bu boradagi dasturalamal qarorlarni tezda amalga oshirish haqidagi ko'rsatmalari bolalar yozuvchilariga ham aloqadordir. Demak, bolalarga yozilgan asarlar g'oyaviy-badiiy, tarbiyaviy-nafosat jihatdan juda mukammal bo'lishi talab qilinadi.

SHe'r bolalarning doimiy hamrohi. Uni yod oladilar, qo'shiqboplarini kuylab yurishadi. SHunday ekan, bolalar she'rlari har tomonlama pishiq bo'lishi lozim. Bolalar she'rlari sodda va tushunarli, ma'no va mazmunan oddiyroq, mantiqan aniq va ravshan, tili shirin va ta'sirchan iboralarga boy bo'lishi maqsadga muvofiq. Bunday she'r bolalar ongiga tez etib borishi bilan birga, ularning g'oyaviy-ahloqiy, ma'naviy-nafosat tarbiyasiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

SHu talablar bilan bolalar she'riyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'min, Ilyos Muslim, Do'stjon Matjon kabi otaxon shoirlarimiz asarlari diqqatga loyiq. 70-yillar o'rtalari va 80-yillar boshlarida bolalar she'riyatiga Anvar Obidjon, Abdusaid Ko'chimov, Habib Rahmat, Ollbergan Po'latov, Hamza Imomberdiev, Kavsar Turdiev kabi shoirlar o'zlariga xos ovoz bilan kirib keldilar. Ayniqsa, Anvar Obidjon, Ollbergan Po'latov, Abdusaid Ko'chimovlarning she'r va ertaklari badiiy salmog'i, mazmunan teranligi, poetik mantiq va mushohadaning izchilligi, ma'no va til birligining ravshanligi, umuman xalqchilligi bilan

ajralib turadi. Ular bolalarga fikrlarini ibtidoiy nasihat yo'li bilan emas, balki badiiy tahlil va tadqiqi orqali, shuningdek jonli va ramziy tasviru ifodalar vasitasida singdirishga intiladilar. Hozirgi bolalarning bilimi, dunyoqarashi, fe'l-atvori xuddi shu narsani talab qiladi.

### **1.2. Anvar Obidjon she'rlari – bolalar qalbi, ruhining yorqin ko'zgusi.**

Anvar Obidjon she'rlari – bolalar qalbi, ruhining yorqin ko'zgusi. Uning asarlari o'zidek quvnoq, goh o'ychan, tili sodda va shirin, xalqchil. Qahramonalir insonparvar, bag'ri keng, hazilkash bolalar. SHu tufayli shoir barcha bolalar diliga osongina yo'l topa oladi. Anvar Obidjon so'zlarni chertib-chertib, bolalarning yosh xususiyatlariga mansublarini tanlaydi va o'z o'rnida ishlatadi. Bu uning deyarli brcha she'riy asarlariga xos fazilat. Eng quvonarlisi shuki, bola Anvar Obidjonning she'rlarini tutilmasdan, qiynalib-qoqilmasdan, erkin, ravon o'qiydi. SHoir she'r uchun chiroyli, qiziqarli, original detallarni topa oladi.

Anvar Obidjonning «Bayram libosi» she'ri bolani ham kuldiradi, ham o'ylatadi. Tariqvoy G'unchaoyga «ko'ylak tikib», «bayramda shod yur» ishi uchun xonatlas sovg'a qilib keltiradi. Kirpi ham tikib berishga rozi bo'ladi, lekin «faqat zo'rroq bichiqchi topib kelinglar» deb iltimos qiladi. «SHu payt semiz Kalamush Kavakdan chiqib asta», «- Ko'ylakni, mana biz, Bichamizda bir pasda» deydi. SHE'r quyidagi satrlar bilan tugaydi:

U ishni tez bajarib,  
«Qoyilmisiz?!»deb qo'ydi.  
... Keyin, ko'ylakdan ortgan  
Qiyqimlarni eb qo'ydi.

She'rni o'qish bilan bola, albatta, kulib yuboradi va Kalamushning badnafisligidan nafratlanadi. Anvar Obidjon badnafs bo'lmaslik kerak, degan

g'oyani chiroyli kulgu orqali ilgari suradi. She'r nafosat jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Anvar Obidjon she'riyatidagi eng ko'lamli mavzu – Ona Tabiat va Bolalar. SHoir bu mavzuga ijodining boshlang'ich pallasidanoq qo'l urdi. Bu muhim va ahamiyatli masalani yuksak badiiy tarzda yoritish uchun jiddiy izlandi, vositalar, usullar, ohanglar topishga intildi. Uning 80-yillarda ketma-ket e'lon qilingan «Dalalardan bolalarga», «Ajoyibxonona», «Kulchalar», «Siz eshitmagan qo'shiqlar», «Botirvoyning kundaligi», «Bulbulning cho'pchaklari», «Ignalarim chiroyli», «G'alati maktublar» singari she'riy turkumlari bu izlanishlarning samarasi bo'ldi. Mazkur turkumlar o'zbek bolalar adabiyotida yangilik, alohida hodisa sifatida tan olindi, yuqori baholandi. Ma'lumki, o'zbek bolalar adabiyotining ilk davrlaridayoq tabiat mavzusi etakchilik qilgan. Agar boalar uchun tabiat mavzuida maxsus yozilgan she'rlar yig'lsa, ular ko'p jildlik kitoblarni tashkil etgan bo'lardi. Ushbu yo'nalishda o'quvchiga ma'qul keladigan, avvalgilarga nisbatan yaxshiroq asarlar yaratish, bu borada kashfiyot qilish nihoyatda murakkab bir yumush edi. Anvar Obidjon o'z turkumlarida ana shu boqiy mavzuni bolalar ongiga, dunyoqarashiga, ruhiyatiga mos tarzda badiiy talqin etishda o'ziga xoslik topa oldi. Uning she'rlarida tabiat turfa rang va ohanglarda namoyon bo'ladi. SHoirning ona tabiat haqidagi she'rlarida hayotga, insonga muhabbat, uning boqiyiligiga ishonch tuyg'usi ko'zga tashlanadi, yosh kitobxon qalbini hayajonga soladi. Ularda biz yuilan yonma-yon yashayotgan har bir jonzot, har bir o'simlik tabiat in'om etgan tiriklikdan zavqlanadi, bu dunyoda yashashning o'zi quvonch ekanligini tarannum etadi. SHoir ularda tashxis (jonlantirish) va intoq (Odamlarday so'zlatish) san'atlaridan mohirlik bilan foydalanib, turli jonzotlarni, hatto jonsiz narsalarni ham bolalarday hatti-harakatlarida, so'zlatadi. Yaratilgan obrazlarning ko'pchiligi goh monolog, goh suhbat, goh qo'shiq, goh tarjimai hol, goh maktublar usullaridan qalblarga bor haqiqatday bo'lib quyiladi. Ular benihoyat soddaligi va

samimiyligi, beozor kulgiga yo'g'rilganligi bilan o'quvchini o'ziga rom etadi. Masala, 41 ta she'rdan tashkil topgan «Dalalardan - bolalarga» turkumidagi «Loviya» she'riga e'tibor beraylik:

Hasad qilar	Loviyalar
Menga Mosh,	Qorako'z.
Mevalarim	Silkitmasdan
Qalamqosh	Asta uz.
Bir tupimda	Yo'qsa,
YUz uya,	Uyni ochishar,
Uya to'la	Tirqirashib
Loviya.	Qochishar. <sup>3</sup>

Aniq ko'rinib turibdiki, she'r nihoyatda ixcham. Misralar bir va ikki so'zdan tashkil topgan. Undagi voqea qahramonning o'z nutqi usulida ifoda etilgan. Uning portretiga xos shtrixlar ham bor. Ritm ta'sirli. SHoir she'rda haqiqatdan chekinmagan holda hayoliy-romantik obraz yaratgan. SHE'r kichkintoylarni bir tupdagi yuzlab uyalarda yashaydigan «qalamqosh» «qorako'z» o'simlikka o'zgacha nigoh bilan qarashga undaydi. YOki «Bug'doy» nomli she'rni olsak, unda bu o'simlik haqidagi hammaga ma'lum gaplar bilan cheklanib qolinmagan. SHE'rda romantik ruh bor. Bu ruh Bug'doyning o'ziga xos olami borligini ta'sirli ko'rsatishga xizmat qiladi. Darhaqiqat, Bug'doy ham har bir tirik mavjudod singari urug'dan unadi, o'sadi, hosilga kiradi. O'ziga xos hayot yo'lini bosib o'tadi. Demak uning ham o'ziga yarasha olami bor. SHoir bu olamni bolalar qalbini hayajonga soluvchi Bug'doyning o'z so'zlari (monologi) orqali ko'rsatishga erishgan.

... El kuylasa	Oy chiqqanda
O'ynayman,	Qo'noqqa,
Xirmon sari	O'xshar
Bo'ylayman.	Kumush o'roqqa

---

<sup>3</sup> A. Obidjon. O'g'rilangan pahlavon. T. CHO'lpon. 2006 yil

She'rdagi samimiyat, nafis tasvir o'quvchi ko'z o'ngida sirli, sokin tunning go'zalligidan zavqlanayotgan, osmondagi oyni «kumush o'roqqa» o'xshashini kashf etgan Bug'doy siymosi gavdalanishiga sabab bo'ladi. Bunday she'rlar bolalar qalbida ezgulikni, mehr urug'larini undurishi shubhasizdir,

Mazkur turkumda yurtimizdagi deyarli hamma meva va sabzavotlarning o'ziga xos dunyosi borligi mahorat bilan ko'rsatilgan. Ular o'zlari haqida g'urur bilan, to'lib-toshib gapiradilar. Bu g'ururlanish aslo maqtanchoqlik emas. Ulardagi shodlik va faxru g'urning asosi shundaki, ularni ona batiat inson uchun yaratgan. Inson ularni o'z mehnati bilan parvarish qiladi, o'stiradi. Bu birlik, bu go'zal jarayon ikki tomondan ham faxrlanish, cheksiz quvonch tuyg'ularini jo'sh urdiradi. SHoir o'simliklar (uzum, olma, nok, anor, anjir va boshqa mevalar: qovun, tarvuz, bodring, piyoz va boshqa poliz mahsulotlari) obrazlarini yaratishda ham o'ziga xos uslubga sodiq qoladi. YA'ni ular mohiyatini badiiy jihatdan ochishda faqat o'zlarini so'zlatadi. Hatto ular o'z portretlarini o'zlari chizadilar.

Ma'lumki, adabiyotda, jumladan bolalar adabiyotida bu kabi narsalar (masalan uzum, olma) haqida sanoqsiz she'rlar yaratilgan. Anvar Obidjonning eng kata yutuqlaridan biri shundaki, ular to'g'risida original asarlar yaratadi. Fikrimiz quruq bo'lmasligi uchun tabiat alifbosi haqida turkum she'rlar yaratgan mashhur bolalar shoiri Quddus Muhammadiyning «Uzum» she'ri bilan Anvar Obidjonning «Uzum» she'rini qiyoslab ko'raylik.

Quddus Muhammadiyning tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlarida tom ma'noda milliy ruh, o'zlikni his etish tuyg'usi yorqin ko'rinadi. Lekin Quddus Muhammadiy va umuman ko'plab keksa avlod shoirlari bolalar adabiyotiga bolalarni ahloqiy-ta'limiy tarbiyalashdagi qo'shimcha vosita deb qarashni ma'qul deb o'ylashagan. Va qalamga olingan narsa haqidagi ma'lumotlari kengroq, batafsilroq berishga intilishgan.

Mevalarim eng asili

YAshil ishkom bog' uzumim.  
Uchqorada qora kishmish  
Parkentda bor tog' uzumim.  
Toyif, hasayn, kata qo'rg'on,  
SHakarrangul ham shivilg'on.  
Nimrang, naycha, muskat jono,  
SHirin-shakar bol uzumim.

Keltirilgan she'rdan ko'rinib turibdiki, Quddus Muhammadiy bolaning ruhiyati, his tuyg'usiga emas, balki ongiga, aqliga ta'sir etish, bilim doirasini kengaytirish kabilarni asosiy maqsad qilib olgan. SHuning uchun shoir uzumning turli navlari xususida bolaga quruq ma'lumot berish bilan chegaralangan. Anvar Obidjon ham, bolaning ongini boyitishga urinadi. Ammo u sal boshqacha yo'l tanlab, birinchi galda bolaning ruhiyatiga ta'sir etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Buning uchun shoir uzumning badiiy obrazini yaratadi. U jonli qahramon kabi bevosita o'zi haqidagi ma'lumotlarni quvnoqlik bilan so'zlaydi:

Donolarim	Kuzda
Marjoncha,	Eb-eb to'yishar,
Bir boshim -	Qishga
Naq bir jomcha.	Osib qo'yishar.
Quritsangiz,	YOsh-qarilar.
Dasturxonga	Maqtar hatto
Fayzman.	Arilar.

She'rda o'quvchi chehrasida beixtiyor kulgi paydo etuvchi samimiy yumor borligi asarning qimmatiga qimmat qo'shadi.

SHoir she'rlarining badiiyligiga xos etakchi xususiyatlar yumor, ozgina quvlik, sho'xlik, hazil, kinoya vositalarining mo'lligidir. SHunisi muhimki, qahramonlarning fe'l-atvori kichkintoylarning tabiatiga mos, diliga yaqin, so'zlari bolalar tiliga xos va tushunarlidir. U juda oddiy narsalardan ham

kulgili vaziyatlar yarata oladi. Misol uchun «Sarimsoqqiyoz» she'ri qahramoni o'zini shu darajada kibrli, viqorli tutadiki, shuning o'ziyoq o'quvchida kulgi uyg'otadi:

Ismim

Janob Sarimsoq...

Gapirgan yo'q

Ko'p uzoq.

She'r tushuallanmasidan shoir kutilmagan burilish yasaydi va beixtiyor salobat bilan kerilib turgan Sarimsoqqiyozning haqiqiy yuzi ko'rinadi. O'quvchi, yosh oshpazdan yozining badbo'yligini yashirayotgan maqtanchoq ustidan qah-qah urib kuladi:

... Bo'lma anqov      Mendek  
Va sodda,              Hidi shirinni...  
CHiqarib qo'yma      Hoy,  
YOddan -              Jiyirma burunni!

Shoir ana shunday kulgili vaziyatlar yaratish chog'ida batafsil tasvirlash va ortiqcha tafsilotlarga berilib ketmaydi. U lo'nda fikr-tuyg'ular ifodasi vositasida yaratilayotgan obraz bilan kitobxon o'rtasida jonli muloqot o'rnatadi. Har bir qahramon o'quvchining yoniga kelib, o'zi haqida maroq bilan, chaplanib gapirayotgan suhbatdoshga aylanadi, kitobxonga samimiyat bilan bemalol murojaat qiladi. Masalan:

Murobboga	YOki:	Nega uzding
Qalaysan		Bandimni?
Berisha-ku		Sog'indingmi?
YAlaysan.		Mantini?
(«Maymanchak»)		(«Oshqovoq»)

Ko'rib o'tganimizdek, bolalar olamida xayolot va haqiqat doimo yonma-yon, birgalikda yuradi. Anqar Obidjon she'rlarida nafaqat o'simliklarning, balki hayvon va parandalar, turli hashorotlar dunyosi ham

bolalar olamiga ana shunday omuxtalikda taqdim etiladi. Ular ham xudi o'simliklar singari o'z sirlari, dar dva tashvishlari, quvonchlar bilan o'rtoqlashadilar. SHu tariqa shoir o'zining kichik o'quvchilari qalbida tabiatga nisbatan hurmat, muhabbat uyg'otadi.

Anvar Obidjon «Ajoyibxona» turkumining muqaddimasida ta'kidlaganidek, «Qumursqadan tortib Filgacha, Itbaliqdan tortib Kitgacha, CHivindan tortib Lochingacha – hamma – hammasi xudi siz biz kabi ona Sayyoramizning teng huquqli farzandlaridir»<sup>4</sup>. SHoirning bu fikri faqat jonzotlarga bag'ishlangan she'rlarininggina emas, balki butun ijodining asosiy o'zak qismini tashkil etadi.

Anvar Obidjonning «Siz eshitmagan qo'shiqlar» turkumi o'zbek bolalar adabiyotining yangi pog'onaga ko'tardi. Bu she'rlarida jonli va jonsiz narsalar: bedana, sirtlon, xo'tik, sichqon, koptok, chirmanda, miltiqcha, hattoki avtomobilu shippak, ruchkayu telefongacha o'ziga xos ohangda ashula aytadi. SHoir hamma –hammasining o'z qo'shig'i, boshqalarga aytgisi kelayotgan o'z so'zi borligini bolalar qalbi va ongiga navobaxsh satrlar orqali etkazadi. Bu qo'shiqlarni tinglar ekansiz, har bir «xonanda»ning hayotga bo'lgan muhabbatini, olamda mavjudligiga shukronalikni tuyasiz hamda dunyodagi jamiki jonli-jonsiz narsalar ezgulikka, mehrga zor va tashna ekanligini chuqur his etasiz. Eng muhimi bu qo'shiqlar kichkintoylarni tevarak-atrofga befarq qaramaslik, shafqatliroq, rahmdilroq bo'lish, tabiatni iloji boricha asrab-avaylash kerakligi borasida o'zlari uchun muhim xulosalar siqarishga undaydi.

SHoir o'z qo'shig'ini o'zi ijro etayotgan har bir narsaning hayoti ma'nosini, umr mazmunini imkon qadar teran ochishga alohida e'tibor beradi. Qo'shiqlar musiqasi jonli-jonsiz narsalardan chiqadigan vozlarga mos tarzda yaratilgan. Vozlarning turli-tumanligi musiqalarning rang-barangligini yorqin

---

<sup>4</sup> Z. Ibrohimova. «Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar». (SHoir adabiy portretiga chizgilar). Toshkent 2005 yil. 26-bet

ifodalab bergan. Masalan, miltiq otilganda undan «paq-puq» degan ovoz chiqadi. «Miltiqcha qo'shig'i»ning kuyi ana shu tovushga hamohang eshitildi:

Do'konlarda sotilaman,

YOqtiraman mard o'rtoqni

Paq-puq.

Paq-puq.

YOlg'ondan otilaman,

CHO'chitaman lanj, qo'rzoqni

Paq-puq.

Paq-puq.

Demak, o'yinchoq «shumtaka» miltiqcha hayotining mazmuni – mard bola bilan o'rtoq bo'lish, lanj va qo'rzoqlikni cho'chitib, ko'nglini yozish. Bu oddiy haqiqat asar mag'ziga san'atkorona singdirilgan.

Ma'lumki, hayotdagi, tabiatdagi narsalar tashki ko'rinishlari jihatidan har xildir. Ularning ba'zilari go'zal, ayrimlar esa xunuk. Lekin mahoratli yozuvchilar o'ta xunuk narsalarda ham o'ziga xos go'zallik borligini ko'rsata oladilar. SHu jihatdan Anvar Obidjonning «Baqa qo'shig'i» nihoyatda xarakterlidir:

Egnimda ko'k ko'ylagim,

Kulcha ekan yuzlarim,

Vaq-vaqa-vaq.

Vaq-vaqa-vaq.

Oldimda toshoynagim,

SHahlo ekan ko'zlarim,

Vaq-vaqa-vaq.

Vaq-vaqa-vaq.

Baqaning sho'x qo'shig'i, nihoyatda xushchaqchaq kayfiyati, tashqi ko'rinishidan bu qadar mamnunligi beixtiyor yosh kitobxonni zavqlantiradi, kayfiyatini ko'taradi. SHu bilan birga, uning qalbida tabiatning, garchi ko'rinishi xunuk bo'lsa ham, beozor bir mavjudotiga nisbatan iliq tuyg'u uyg'otadi. Uni tevarak-atrofga o'zgacha nazar bilan qrashga, har bir narsa olamidagi go'zalliklarni ko'ra bilishga o'rgatadi. SHoir shu tariqa, tabiatga oid ko'plab she'rlarida bolalarga, hatto sen uchun jirkanch tuyulgan narsaning iqdir, degan falsafiy fikrni etkazishga intiladi.

Anvar Obidjonning narsalar va jonzotlar haqidagi she'rlarida ularning dunyosidagi ham insonlarga xos Vatan, vijdon, or-nomus kabi ijtimoiy

tushunchalar mavjudligi ko'p hollarda ataylab bo'rttirib berilgan. Zero, bundan ko'zlangan maqsad jaji kitobxon qalbida bu oliy tuyg'ularni yanada yalangalatishtir.

Inson kindik qoni to'kilgan joyni Vatan deb bilganidek, tabiatdagi jonzotlar ham tug'ilgan joylarini muqaddas maskan deb anglaydilar, unga yoniqib sehr qo'yadilar. Masalan, shoirning «Tog' qushi» she'rida qqfasdagi tutqun Kaklik o'z Vatani tog'larni qo'msaydi. SHE'r ikki qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismida Kaklikning polaponlik chog'lari haqida fikr yuritiladi. YOshlik – dunyodagi jamiki mavjudotda eng go'zal, fusunkor ranglarga, yorug'likka, ezgulikka va quvonchlarga to'liq bo'lishi bilan ajralib turadi. Kaklikning ham yoshlik yillari o'z ona-Vatani – tog'lar quchog'ida o'tadi. U o'z go'shasida nafaqat yayrab, emin-erkin yurardi, balki yoqimli sayrash bilan tevarak-atrofga go'zallik taratardi, yurtini quvonchlarga to'lib madh etardi. SHoir qushning bu kunlarini bir qadar sokin, armonli xotira tariqasida tasvirlaydi. SHE'ring ikkinchi qismida Kaklikning qafasdagi hayoti, nihoyatda achinish, g'am-alam bilan ifoda etiladi:

Endi	YOqimlidir
Ingrar qafasda	Kaklikning
Kelmay uyquasi...	Hatto yig'imi.

SHoir she'rini ana shunday kinoyali ohangda tugatadi. Vatanidan ayrilgan qushning ingrab yig'ilishini sezmayotgan, aksincha, o'zganing kulfatidan o'ziga huzur yaratganlarning ichki olami qora bo'yoqlarda ifoda etiladi. Erkinlik va tutqunlikning qiyosiy ko'rsatilishi o'quvchini chuqur o'ylantiradi, mushohada qilishga undaydi.

Vatan sog'inchiga bag'ishlangan «Kekcha Ari» she'ri ham diqqatga sazovordir. Unda Keksa arii nabiralariga arilarning vatani bo'lgani haqidagi ertakni takror-takror aytaveradi. Ertak nabiralarining sira joniga tegmaydi. Kichkintoy arilar ertakni har gal jon quloqlari bilan tinglashadi. Ular tutqunlik iskanjasida torayib ketganidek ko'rinayotgan ona-Vatan bqalbini

o'rtayotganligini yurakdan his etadilar, Vatanning qaytadan ozod bo'lishi ularning ham ezgu orzusiga aylana boradi. SHoir Vatan ozodligi tuyg'uchi naqadar ulug', muqaddas ekanligini, u nafaqat insonlarga, hatto biz nazarga ilib-ilmaydigan jonzotlarga ham xosligini keksa arii obrazi misolida, juda oddiy, nihoyatda ta'sirli usulda o'quvchiga etkaza olgan.

Anvar Obidjonning «Boyqush» she'ri mag'ziga inson o'z Vatanini faqat go'zalligi, boyligi uchungina sevmasligi, balki uni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishi kerak, degan falsafiy fikrni kichkintoylar qalbi va shuuriga etkaza olgan. SHE'r savol-javob usulida yozilgan. Tabiiyki, faqat kichkintoylar emas, balki kattalar ham nega qushlarning bir xiliga «Boyqush» nomi qo'yilganligi bilan qiziqadilar. Axir bu qushlar nimasi bilan atrofdagilardan o'zgacha? Boyligi nimalardan iborat? SHoir kichkintoylar nomidan Boyqushga quyidagicha savol bilan murojaat etadi:

-Senga bita savol bor  
Menga quloq sol, hoy qush,  
Vayronada yashaysan,  
Noming esa naq Boyqush.  
Ayt-chi, nahot sen boysan?

Qush bu savolga ko'pni ko'rgan keksa donishmandlardan bosiqlik, donolik bilan javob qaytardi:

-Asl boylik neligin  
Tushunmaysan chamasi,  
Bu vayrona bo'lsa ham,  
O'zinniki hammasi.  
SHuning uchun men boyman.

Bu javob kichkintoylarni o'ylashga, fikrlashga undashi, shubhasiz. Ular asl boylik, o'z uyingga, o'z maskanigga, o'z Vatanigga bo'lgan sadoqat, muhabbt ekanligini his etib, o'zlari uchun muhim ma'naviy xulosalar chiqarib oladilar.

SHoirning «Tillaqo'ng'izning javobi» she'rida ham muhim ijtimoiy g'oyalar – birovning yurtini bosib olgan bosqinchilarga nafrat, xo'rlangan va o'lib borayotgan ona tiliga fidoyilarcha sadoqat tuyg'usi majoziy obrazlar misolida sodda va ma'noli aks ettirilgan.

Anvar Obidjon oddiy narsa va voqealardan kutilmagan syujet yaratishga nihoyatda usta shoir. Ushbu she'rda bolalar ko'pincha beparvo qaraydigan, ba'zan tutib olib, oyog'iga ip bog'laganicha «Vizillab» uchishga majbur qiladigan, ularning qo'lida ko'ngilochoq o'yinchovqqa aylanib qoladigan tillaqo'ng'izning gapirmasdan, o'nab-kulmasdan, doimo tund g'o'ng'illab yurishining sababi yangicha bir echim bilan ochiladi. Emishki, bir vaqtlar tillaqo'ng'izning «tor bo'lsa ham» o'z makoni bo'lgan ekan. O'z Vataniga qattiq mehr qo'ygan tillaqo'ng'iz u paytlarda zo'r qo'shiqlar aytar, yayrab yashar ekan. Ammo yurtiga bosqinchi – chigirtkalar bosib kiribdi. Ular o'zga yurtning boyliklarini ayamasdan talon-toroj qilishibdi. Tillaqo'ng'izlarni «Moddiy» tarafdin qashshoq qilishgani etmaganday, ularni «ma'naviy» tmondan ham qul qilish istagida «chigirtkadek sayrashga» majbur eta boshlashibdi. SHunda Tillaqo'ng'iz yolg'iz, nochor bo'lsa ham, yovga egilishni istamabdi va o'zini soqovlikka solib olibdi. SHE'r yosh o'quvchida ayanch hissini uyg'otadigan hazin ohangda bitilgan. Tillaqo'ng'izning soqov bo'lib qolishida chuqur ma'no bor. CHunki u kimlargadir nimalarnidir isbot etish uchun, yoki o'zini, o'z ona tiliga cheksiz muhabbatini ko'rsatish uchungina bunday qilmaydi, balki o'z vijdoni, or-nomusi oldida tozaligicha qolish, yurtiga, jondoshlari manfaatiga sodiqligicha yashish uchun ham, chigirtkadek sayrashdan ko'ra, soqov bo'lib yurishni afzal deb biladi. Bu kichkina Tillaqo'ng'izning zo'ravonlikka, yovuzlikka nisbatan kata isyoni edi.

SHoirning «Beozor kuchuk» she'rida talonchilarning, zo'ravonlarning o'zgalar tinchiga zomin bo'lishi, o'zgalar rizqiga ko'z olaytirishi aslo kelishib bo'lmaydigan hol ekanligi haqida so'z borgan. Bu she'rdagi voqealar avvalgi

she'rdagiga nisbatan boshqacharoq, bundagi «bosqinchini» jazolagan kuchuk nihoyatda beozor, hech kimga yomonlik qilishni ham, urushishni ham istamaydi. Ammo taqdir taqozosi bilan, uning uyiga «Serbet Ko'ppak» bostirib kiradi:

Kirib birdan uyimga,

Tortib oldi suyakni.

Keyin

CHil-chil sindirdi

YUvindili tuvakni...

Anvar Obidjon uslubiga xos bo'lgan xususiyat - juda nozik, o'ta jiddiy vaziyatni ham kulgili, ayni chog'da haqqoniy va tagdor qilib tasvirlash bu she'rda ham yaqqol ko'rinadi. Kata odam uchun bir qadar kulgili ko'ringan bu dastlabki misralardagi tasvirni kichkintoy ancha bosiqlik va jiddiylik bilan qabul qiladi. CHunki u beozor kuchuk tomonidan hikoya qilinayotgan keskin voqeaga loqayd tomashabin sifatida qaramaydi, balki kuchukning holatini his etadi va she'r so'ngida Beozor kuchuk Surbet ko'ppakning iligidan tishlab olishini adolat mezonini sifatida qoniqish bilan qabul qiladi.

Anvar Obidjonning ijtimoiy xarakterdagi she'rlari ko'pqatlamligi bilan ham yaqqol ajralib turadi. Ularni bolalar ham, kattalar ham qiziqib o'qiydilar va ma'naviy ma'nolarni o'z mushohadalari doirasida dilga singdiradilar. SHoir «Sigir qo'shig'i», «Parvarda», «Yirtqich» kabi she'rlarida kichkintoylarning dunyoni anglashga intilish jarayonlaridagi kattalar bilan to'qnashuvi, ota-onalar va bolalarning ba'zan bir-birlarini to'g'ri tushunmasligi bois sodir bo'luvchi turli anglashilmovchilik oqibatida kelib chiqadigan dramatik holatlarni kulgili tarzda ko'rsatadi. SHu ma'noda «Sigir qo'shig'i»ni ko'rib chiqaylik:

Qand deb yig'lar buzog'im,

Tinchimaydi qulog'im,

Mo'-o'-o'.

Bilmaydiki esi past

Ko'k beda ham yomonmas,

Mo'-o'-o'.

Ko'nmayapti u sira,  
Bersam hatto kunjara,  
Mo'-o'-o'.

Nima u – «qand» degani,  
Arziydimi egani?  
Mo'-o'-o'.

She'rdagi buzoqning onasidan «qand» so'rayotganligining o'ziyoq bog'cha bolasi uchun kulgili tuyulsa, kichik maktab yoshidagi bola she'rga jiddiyroq munosabatda bo'ladi, ona-Sigirning, birinchidan qand topish imkoniyatiga ega emasligiga, ikkinchidan, bolasini ovqatlanishga qo'ndirilmay qiynalayotganiga uning rahmi keladi. Ayni paytda, Buzoqning juda-juda «qand» egisi kelayotganini ham yurak-yurakdan his etib turadi. Chunki, uning o'zi ham biron-bir shirinlikni nihoyatda egisi kelga vaqtlar bo'lgan. Topilmasa, injiqliklar ham qilgan. Shuning uchun Buzoqning o'z orzusiga erishishini chin dildan istaydi. O'smir esa bu she'r ustida yanada teranroq fikrlaydi. U, dunyoda xashak, kunjara va ko'k bedadan boshqa narsalar ham borligini bilmagan, umri davomida o'z turmushini boshqalarniki bilan biron marta qiyoslab ko'rmagan soddagina ona-Sigirga qattiq achinadi, bularning siymosida o'z qobig'iga o'ralib, atrof bilan mutlaqo qiziqmay, qorong'ilikda yashayotgan insonni va yorug'likka intilayotgan bolani ko'radi.

Anvar Obidjonning ijtimoiy xarakterdagi she'rlari bolalarni ona-Vatanga muhabbat, yaxshilikka sadoqat, adolatga intilish, ozodlik uchun kurashish ruhida tarbiyalashdek muhim vazifalarni amalga oshishida kata ahamiyatga ega.

## **II bob. Anvar Obidjon ijodida ruhiyat tasviri**

### **2.1. «Oltin yurakli Avtobola» qissasida inson ma'naviyati bilan bog'liq muammolarning ochib berilishi**

O'tgan asrning 80-yillari oxirlarida mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ro'y bergan tub o'zgarishlar bolalar adabiyotiga ham ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. YOzuvchilarimizning diqqat e'tiboridan mutlaqo chetda qolib kelayotgan «o'zlikni anglash» mavzulari o'z aksini topa boshladi. Anvar Obidjonning «Oltin yurakli Avtobola», «Alamazon va uning piyodalari» va nihoyat «Meshpolvonning janglari» doston-qissasi ana shunday asarlar sirasiga kiradi.

Muallif «Oltin yurakli Avtobola» qissasida yaxshidik va yomonlik o'rtasidagi muttasil kurashni o'ziga xos yangi yo'nalishda tasvirlaydi. U yomonlikni shunchaki ko'rsatmaydi, balki uni keltirib chiqargan omillar qidiradi va ularga chuqurroq nazar tashlashga intiladi. SHu maqsadda qissa davomida bir necha marta o'tgan voqealarga murojaat etish usulidan foydalaniladi va qissaning markaziy qahramonlari Bekxo'ja va Kamolning bolalik yillariga nazar tashlaydi. Muallifning mahorati shundaki, u o'tmishda bo'lib o'tgan kichik-kichik voqelarni eslash orqali o'quvchida har ikki bolaning tabiati, o'sha davrdagi maktab tizimi haqida bir qadar kengroq tasavvur paydo qiladi.

Maktabda har ikki bola birday a'lochi bo'lib o'qiydi. Ammo fuqaroning ijtimoiy kelib chiqishlari har xil. Kamol – oddiy fuqaroning o'g'li, Bekxo'ja – paxtachi boyning (boy Bekxo'ja 6 oylik paytida chet elga qochib ketgan) bolasi. Ma'lumki bolalarning ma'naviy shakllanishida kattalarning alohida o'rni bor. Agar kattalar ijtimoiy kelib chiqish haqidagi masalaga siyosiy urg'u

berishmasa, kimlargadir sinfiy dushmanlik ko'zi bilan qarashmasa, bola buni qaerdan biladi?

Bolalik yillari voqealar tasvirida muallifning Bekxo'jaga nisbatan iliq mehrini payqash mumkin. U ayniqsa, Bekxo'janing tarixni sevishi, ajdodlarimiz qahramonlaridan faxrlanishi, ularni qadrlash kabi xususiyatlarini ma'qullaydi. Bekxo'ja tarix darsini o'qimagan, uni tushunmagan tengdoshlaridan g'azablanadi. Xususan, Muqannani Tarobiy bilan almashtirgan Kamolni jiddiy tanqid qiladi va uni «kallavaram» deydi. Bunday haqoratga o'zini noloyiq deb bilgan Kamol esa uning eng nozik joyini chimchilab o'tadi: «Og'zingni yumib o'tir, sarqit!».

Muallif bu voqeani bekorga eslamaydi. U bolaning nozik qalbi bunday haqorat, kamsitish va doshnomlardan alamli chandiqlarga to'lib ketganligini, natijada u nihoyatda alamzada bo'lib o'sganligini tasdiqlash uchun keltiradi. Muallif asar tagmatida bolani shaxs sifatida sindirishga xizmat qiluvchi bunday shafqatsizliklar haqida o'ylab ko'rishga, mushohada qilishga undaydi.

Adib Bekxo'janing tomir-tomiriga singib ketgan munofiqlik ildizlarini ham uning o'quvchilik yillaridan izlaydi. Sobiq sho'rolar vaqtida tarbiya tizimining buyruqbozlikka, yolg'on va soxtagarchilikka, baho ketidan quvishga asoslanganligini qoralaydi. Insonning ma'naviy huquqlarini buzish avj olganligi uchun maktablardan surbet, munofiq, xudbin, loqayd kimsalarning ko'plab etishib chiqishiga sabab bo'layotganini ta'kidlaydi. Muallif asarning quyidagi kichik voqeadan ana shu holatlarni ko'rsata olgan:

- Mazang yo'q, Bekxo'ja. Bu safarcha «to'rt» qo'yaman.
- SHoshmang, domla, shoshmang! Bita «besh» qarz qipturing. Manna ko'rasiz, kelasi gall...
- «Besh» niyam o'shanda olaverasan.
- Jon-on, domlajon, xudo xayringizni bersin...
- Ie, sovet maktabini machit qilvordingku. «Ikki» senga!

--- SHoshilmang, domla! Bilasiz-ku, ayam kichkinaligimda eskicha o'qitgan. Til qurg'ur o'rganib qolgan bo'lsa, nima qilia? Ana, hammadan so'rang, o'zim xudoga qarshiman. Xohlasam bor, nimadan qo'rqaman?»

Muallif an'anaviy milliy tarbiya va sho'ro maktabisi, oila va maktab o'rtasidagi tafovutlar natijasida bola o'zligidan qaytishga, tashqi muhitga moslashishga majbur bo'layotganligini dard bilan tasvirlaydi.

Bizningcha, asarda Bekxo'janing 14 yoshida oyoqlaridan shol bo'lib qolishi ham bu mustabid tuzumning yosh avlodni ongli ravishda «ma'naviy shollik» sho'ro davrida iqtisodiy tarbiya berish doimo bir tomonlama olib borilardi. YA'ni ular qalbida halol mehnatga nisbatan muhabbat uyg'otadilar, ammo undan ko'riladigan moddiy manqaatga nisbatan nafrat tuyg'usini tarkib toptirishga intilish kuchli edi. Mehnat va moddiy manfaatdorlikka nisbatan bunday soxta munosabat oxir-oqibat bolalar qalbidan ishonchsizlik, loqaydlik, tanballiklarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Mutlaqo mehnat qilmay, harom-harish yo'llar bilan boylik orttirishga intilish tuyg'usi kuchaydi.

Anvar Obidjon o'zbek bolalar adabiyotida birinsilardan bo'lib o'z asarida yosh avlodni iqtisodiy jihatdan to'g'ri tarbiyalash, shaxsiy manfaatdorlik, pul va boylikning inson hayotidagi o'rni masalasiga e'tiborni qaratdi. U belorus shoiri R. Borodullin bilan suhbatida, jumladan, shunday degan edi: «Muhimi bolaning qalbida yoshligidanoq haqiqatga bo'lgan ishonch tuyg'usini tarkib toptirishga ulgurishdir. SHu bilan birga, turlicha talqin etiladigan ayrim narsa va tushunchalarga nisbatan to'g'ri munosabatni tarbiyalash darkor. Masalan, pulga nisbatan. O'smirlar pul haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lishlari zarur, pulga halol mehnat qilgan odamgina ega bo'ladi. YOshlar pul bilan mehnatning uzviy birligini tushunib olishlari nihoyatda zarur».

Muallif «Oltin yurakli Avtobola» qissasida inson pulga sajda qilib, uni hayotining tub mazmuniga aylantirib yubormasligi kerakligini, hayotda undan

qimmatliroq narsalar – insonlar orasidagi mehr-oqibat, vijdon va insof, g'urur borligini kitobxonlar ongiga etkazishga intilgan.

Qissaning eng go'zal joylaridan biri Xoldor va Avtobolaga bag'ishlangan sahifalardir. Muallif unda ikki bola o'rtasida vujudga kelgan do'stlikning buyuk qudratini badiiy ko'rsata olgan.

Xoldor taqdirning shafqatsiz o'yini tufayli (Qattiq sel paytida Bekxo'janing yigitlari Kamolning olti oylik o'g'lini o'g'rilashadi) Bekxo'janing uyiga kelib qoladi. Bu erdagi o'ta tuban muhit, tevarakatdagi xizmatkorlarning badfe'lligi bilan birga, ona mehriga tashnalik, erksizlik, «Dil g'ashliklarini dala-dashilarga sochib kelish imkonidan mahrum»ligi Xoldorning «yoshiga nomunosib» qo'rs va tajang bo'lib qolishiga sababchi edi. Bekxo'ja Kamolga qasdma-qasd Xoldordan «betamiz bezori» tayyorlashni niyat qilgan. SHuning uchun uning qalbida ezgulik, insoniylikka xos sifatlarni hali nish urmasdan yo'q qilish ilinjida bo'ladi. Qissada Avtobola uning hayotiga nur obil kiradi. Xoldor bu po'lat odam bilan emin-erkin o'ynab, quvnab, ruhan chiniqadi. Fantastik obraz Avtobola ayyorlikni mutlaqo bilmaydigan to'g'riso'z odam, soddadillik, mehribonlik va pokizalik timsoli. U o'zining ana shunday hislatlari bilan Xoldor qalbiga qattiq o'rnamashib qoladi. Uning diliga ezgulik urug'larini sochadi. Muallif har ikki kichik qahramon obrazida bola va muhit, bola va kattalar, bolalar dunyosining o'ziga xos qirralarini ishonarli ochishga, ko'rsatishga erishgan.

Qissada o'ta xudbin va kekchi, hayotning mazmuni faqat pul, boylik to'plashdan iborat deb biladigan, bu yo'lda har qanday qabihlikdan ham toymaydigan, ma'naviy va jismoniy shol kishi Bekxo'ja va uning to'dasi haqli ravishda jazosinitopadi. Bu holat damni o'ylatadi. Tabiat insonni oliy darajada ongli qilib yaratibdi. U, hatto o'ziga Avtoboladek mukammal robotlarni yasab olish qudratiga ham ega. Ammo ba'zi odamlar gohida oddiy narsalar oldida ochko'z va ojiz kimsalar aylanib qoladi. Nega? Bu insoning ma'naviyati bilan bog'liq g'oyat muhim, dolzarb masala, azaliy muammo...

Anvar Obidjonning «Oltin yurakli Avtobola» qissa- cho'pchagi yosh kitobxonlarni o'ta jiddiy hayotiy masalalar ustida o'ylashga undashi bilan ham diqqatga sazovordir.

## **2.2. Anvar Obidjon ertak va dostonlarida Vatan ozodligi va erk uchun kurash masalalarining aks etishi**

Ma'lumki, o'tgan asrning saksoninchi yillari o'rtalaridan boshlab xalqimizning tarixga, ajdodlar merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishi kuchaya bordi, bu mavzuda qator asarlar yaratildi. Bu davrda bolalar adabiyotida ham tarixiy-ijtimoiy masalalarni aks ettirishga moyillik sezilarli darajada kuchaydi. Ayniqsa, X. To'xtaboev, N. Aminov, O. Begaliev, S. Salimov va boshqa bolalar adiblari bu mavzularda qiziqarli asarlar ijod etdilar.

Anvar Obidjon 70-yillarning oxirlarida yaratilgan «Alamazon va uning piyodalar»<sup>5</sup> qissasida, 80-yillarning oxirlarida bitilgan «Meshpolvonning janglari» dostonlarida hamda bir necha she'riy ertaklarida Vatan ozodligi, erk uchun kurash masalasini tarixiy mavzuga uyqash tarzida ko'tarib chiqadi.

«Alamazon va uning piyodalar» dagi voqealar afsonaviy shahar YUldistonda bo'lib o'tsa, «Meshpolvonning janglari»dagi voqealar turli qishloqlarda, mustabid shoh taxti joylashgan «Qahratoniya» da ro'y beradi. SHunisi e'tiborga sazovorki, har ikki asarda ham agar davlat boshliqlari ongsiz bo'lishsa, muttahamlik, xudbinlik, laganbardorlik, mansabparastlikka yo'l ochiladi va o'lkasi jannatmakon, odamlari qanchalar pokizafe'l bo'lmasin, har qanday jamiyat, oxir-oqibat «yurt iflos xandaqqa, xalqi irqit maxluqqa» aylanishi mumkinligini kuyunib bayon etiladi. Asarning ichki mazmun-mohiyatidan unda sobiq sho'rolar jamiyati nazarda tutilayotganligi ochiq-oydin sezilib turadi.

Qissa qahramoni Alamazon, ko'plab tengdoshlari qatori, nihoyatda xayolparast va ta'sirchan. Uning ma'naviy dunyosi shakllanishida badiiy

---

<sup>5</sup> Bu saar dastlab «Ey yorug' dunyo» (1983) nomi bilan nashretildi. Keyinchalik muallif uni qayta ishlab, shu nom bilan nashrettirdi. T., 1998 y

asarlarning o'rnini beqiyos. Alamazon kitob o'qib zavqlanadi, qattiq ta'sirlanadi, asar qahramonlariga yurakdan havas qiladi, ularga o'xshab odamlarga ezguliklar va yaxshiliklar qilish, jasoratlar ko'rsatish orzusi bilan yonadi, hayotga cheksiz ishonch va umid bilan qaraydi.

Muallif o'smirdagi mana shu sifatlarni mehr bilan ko'rsatar ekan, bunday sifatlarga ega bo'lgan inson xalqning og'ir ahvolini ko'rib loqayd o'tib ketolmasligini, ifloslik anqib turgan havodan bemalol nafas ololmasligini ta'kidlaydi.

Yana shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, muallif o'z qahramonlarida (bolalarni nazrda tutayapmiz – Z.I) uchraydigan salbiy xususiyatlarni ham o'ziga xos bag'rikenglik bilan tasvirlaydi. Xususan, «Alamazon...»dagi Eshmatning bir qadar loqaydligi, qo'rqqoqligi ochiq ko'rinadi. U hatto zolim Isqirt Birinchining saroyida qolishga rozi bo'ladi. YOki Meshpolvon shu darajada xo'raki, hatto do'stlariga ovqat qoldirmay, hammasini o'zi eb qo'yadi, yoxud «0099 nomli yolg'onchi» ertagidagi Uloqcha – o'ta yolg'onchi, mansabparast, aqlsiz. U o'zining manfaatparastligi bois do'stlarining boshiga ko'p kulfatlar tushishiga sababchi bo'ladi. Ammo do'stlari uni tashlab ketmaydilar yoki qattiq tanqid ostiga olib, jazolamaydilar. Muallif ularning o'z kamchilik va xatolarini tushunib olishlariga imkoniyat yaratadi. Bu qahramonlar misolida odamlar bir-birlariga nisbatan kengbag'irroq bo'lishlari kerakligini, sherigidagi kamchilik va xatolarni tuzutuman deb, ba'zan qalbini sindirib qo'yish mumkinligini, bunday ehtiyot bo'lish lozimligini asarlar mazmuniga mahorat bilan singdira olgan.

Ma'lumki, ma'naviyat, axloqiy tarbiyaning asarlar davomidahayot sinovlaridan o'tgan o'z usullari bor. Ularda daryodillik inson uchun etakchi mezon ekanligi ta'kidlanadi. Xalq dostonlarida uchraydigan quyidagi to'rtlik fikrimizning dalilidir:

YAxshi etdi murodga

YOmon qoldi uyatga.

YOmon odam yomondir

U ham etsin niyatga.

Dono xalqimizning inson haqidagi ushbu falsafiy konsepsiyasini Anvar Obidjon o'z asarlarining mag'iz-mag'iziga mahorat bilan singdiradi.

Anvar Obidjonning «Meshpolvonning janglari» asarida Vatan, xalq ozodligi uchun kurash, insonparvarlik g'oyalari an'anaviy doston janrida o'z badiiy aksini topgan. O'zbek adabiyotining ildizlariga nazar tashlasak, asrlar davomida ijtimoiy-siyosiy kurashlar, ozodlik va tenglik hamda qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallar doston janri imkoniyatlari doirasida boshqa janrlarga nisbatan keng aks ettirilgan.

«Meshpolvonning janglar» asarida johillik, xudbinlik, yovuzlik timsoli bo'lgan bosqinchi Sepkilshoh hukumatining yolg'onga, tuhmatga, quruq safsataga, adomlarni laqillatishga asoslangan siyosati quvnoq yumor, achchiq istehzo bilan masxaralanadi, ayovsiz fosh qilinadi. Uni tor-mor etgan yosh pahlavonlar, qo'rqmas botirlar ulug'lanadi. Keng ma'nodagi go'zallikning yovuzlik, chirkinlik ustidan g'alaba qilganligi sharaflanadi.

Dostoning markaziy qahramoni Meshpolvon ana'naviy dostonlardagi kabi atrofdagilardan tom ma'noda ajralib turadi. Agar Alpomish etti yoshidayoq bobosidan qolgan o'n to'rt botmonlik kamoni ko'tarib Asqar tog'ining cho'qqisini uchirib yuborganligi, Rustamxon o'n ikki yoshida dev bilan olishib, g'alaba qilganligi bilan ajralib tursalar, Meshpolvon nihoyatda ko'p ovqat yoyishi, o'ta qaysarligi, lof-qofga mohirligi va tashqi ko'rishining g'ayritabiyligi bilan ajralib turadi. O'z-o'zidan savollar tug'iladi: yozuvchi bunday salbiy xususiyatli, payti kelsa yolg'onni suvdek ichadigan maqtanchoq bolani nima uchun markaziy qahramon qilib olgan? Nega unga nisbatan o'quvchilarda xayrixohlik uyg'otishga intilgan? Bu xalqimizning bola tarbiyasi bilan bog'liq an'anaviy mezonlarga to'g'ri kelmaydi-ku? Bular nihoyatda to'g'ri va haqli savollar, albatta. Buni yozuvchining o'zi ham

chuqur o'ylagan va sarining ayrim o'rinlarida yuqoridagi savollarga ma'lum darajada javob ham bergan. Buni yozuvchining o'zi ham chuqur o'ylagan va asarining ayrim o'rinlarida yuqoridagi savollarga ma'lum darajada javob ham bergan. YOzuvchi dostoning ba'zi o'rinlarida o'z zquvchilari bilan suhbatlashadi, ularning savollarga javob beradi. Masala, «E, bolasi tushmagur-a! Zap g'alati kitobxonlarga uchradi-da. Boya aytuvdim-ku menga halaqit bermay turinglar deb. YAna o'sha ahvol – mana endi: «Meshpolvon olijanob maqsad bilan yo'lga chiqqan bo'lsa-yu ovqatxo'rliqiyam mayli, lekin namuncha yolg'onni ko'p gapiradi?» deb so'rayapsiz.

Insof bilan aytganda, ochofatlik ham, to'qib so'zlash ham bo'lmag'ur narsa. Ayniqsa yolg'onni hamma yomon ko'radi. Ammo aldoqchilikning atrofdagilar uchun xatarlisi bor, xatarsizi bor, ba'zilari zararli, ba'zilari bezarar. SHu nuqtai nazardan qaraganda, Meshpolvondan ortiqcha o'pkalashamizning hojati yo'q deb o'ylaymiz. Qolaversa, o'zingiz yuqorida aytganingizdek, uning maqsadi ezga, yuragi toza. Aynan mana shu ikki narsa Meshpolvoning istarasini mengayam, sizgayam issiq ko'rsatib, kamchiliklarini xaspo'shlab turgan bo'lsa ajabmas...».

CHindan ham doston markaziy qahramonining maqsadi ezgu, oliy, qalbi top-toza. Uni mubolag'ali, bo'rttirib tasvirlashda Anvar Obidjon yozuvchilarga berilgan barcha huquqlarda san'atkorona foydalangan.

Muallif Meshpolvonning qanday qilib shuhrat qozonishi, el-yurt ardog'iga sazovor bo'lish darajasiga ko'tarilishini ishonarli ko'rsatish maqsadida uning ma'naviy shakllanish bosqichlariga jiddiy e'tibor beradi.

Dastlab Meshpolvon enasining hamiyatga tegadigan gaplaridan dili og'rib, safarga, avvalo o'z shaxsiyatini tasdiqlash («Erkaklik nimaligini bizdan ko'rasiz») edi, lekin safar qiyinchiliklari, qishloqlardagi og'ir, qashshoq hayot, zalm, sotqinlik, xiyonat uning ma'naviy dunyosini o'zgartiradi. Agar Meshpolvon safarining boshida birinchi qiyinchilikka

uchrab, qum to'zonida qolganida xachirini asrashni xayoliga ham keltirmaydi, «Hayvon boshimdan sadaqa», deb hech ikkilanmay undan voz kechgan bo'lsa, ayrilishni hayoliga keltirmaydi. Rayhon qiziq qo'chqorini so'ymoqchi bo'lganida, qalqon bo'lib uni asrab qoladi. Uning ongida, tafakkurida o'zgarish ro'y beradi. Qiyinchiliklarda o'ziga yo'ldosh bo'lgan bu tilsiz hayvonlarning qanchalik qdrdon va aziz bo'lib qolganligini his etadi, o'zini-o'zi engishga kuch topadi. Muallif umummiy maqsad tufayli birlashib, do'stlashib ketgan Oshiqbola, Rayhon qiziq, CHumakovoy va Meshpolvonlarni o'ta dramatik voqealar, qiyinchiliklar sinoaidan o'tkazadi. Meshpolvon asta-sekin hayotga, atrofda sodir bo'layotgan voqealarga chuqurroq nazar tashlashini, mulohazaliroq bo'la borishini muallif bir-biridan qiziq va dahshatli voqealar davomida ko'rsatib beradi. Masalan, Iblisjar hoqoniing evarasi Hojixon ajina Meshpovoning yoniga kelib, o'zi bilan o'rtoq bo'lishni taklif etadi. Ular o'rtasida shunday suhbat bo'lib o'tadi:

«O'rtoq'im bo'lsang, seni bu jardan qutqarishim mumkin.

--- Meni xolosmi? Bularni-chi? – deb savol berdi Mepolvon, sheriklarini ko'rsatib.

--- Hamma gap shunda-da. YO larni deysan, yo meni»

Hayotda har bir inson umrining qaysidir pallasida ikki yo'ldan birini tanlashi keark bo'ladi. Bu mas'ulistli pallada go'yo taqdir seni sinaydi. Agar Hojixon ajina Meshpovon sarguzashtlarining boshida uchraganida u hech bir ikkilanmay o'zini qutqarish yo'lini tanlagan bo'lardi. Ammo qishloma-qishloq yurib, xiyonat va sotqinlikning achchiq, jirkanch izlarini ko'rib saboq olgan, endi xiyonat haqidagi qo'shiqlarni eslab, baxshining «Anqovlikni oqlash mumkin, YAlqovlikni oqlash mumkin, Xiyonatni oqlab bo'lmas» - kabi satrlari mag'zini chaqa oladigan darajaga etgan Meshpolvon bu gall o'ylanib qoladi, qalbida ichki kurash ketadi. Bir daqiqada fikri uchqur otdek har yoniga borib keladi. «YUrtda qanday bosh ko'tarib yuraman?» degan o'y-xayoldan so'ng Meshpolvon: «- Yo'q, bunisi bizga to'g'ri kelmas ekan»,

degan qat'iy qarorini aytadi. SHu tariqa Meshpolvon ruhiy ma'naviy jihatdan o'sib boraveradi.

Muallif Meshpolvonning sarguzatlari tasviri orqali bosqinchilar bosib olgan mamlakatning tang ahvolini, mustabid tuzumning jirkanch qiyofasini imkon qadar keng ko'rsatishga intiladi. Bosqinchi podshoning xizmatkorlari xo'jaynidan ham zulmkor va razil bo'lishini, xalq bundan yanada ko'proq aziyat chekishini, ayniqsa, Nahang o'lponchi obrazi misolida badiiy asoslab beradi.

Muallif zulmkor podshoning yovuzliklari tufayli xonavayron etilgan ming-minglab qishloqlardan biri Mingpoda qishlog'i haqida gapirar ekan, odamlarning naqadar ma'naviy jihatdan qashshoqlashib ketganligini, hammasi o'z ishini bitirish, o'z nafsini qondirish bilan band ekanligini kuyunib yozadi. Qo'rqitilgan va xo'rlangan odamlarning bir-biriga mehr-oqibatsizligi o'z ortidan beforqlik va sotqinlikni boshlab kelishini, osongina tizginlab olishini achchiq alam bilan hikoya qiladi. Dostondagi bunday sahifalar o'quvchilarni ahloqiy muammolar haqida o'ylashga, mulohaza yuritishga undaydi.

YOzuvchi Mingpoda qishlog'ining qurumli ko'chalarida ko'ngil iliqlik olib kiruvchi pokizalikni bolalarda ko'radi. Faqat ulargina loqayd emas, yangilikka, o'zgarishlarga tashna. SHuning uchun: «Faqat bolalargina g'alati qurollanib, xo'kizteri yopingan jangchini (Meshpovonni- Z.I) alohida qiziquv bilan tomosha qilishib, ko'chma-ko'cha ergashib borishdi».

YOzuvchi shu qishloq chegarasidagi «suvsiz toshhovuz, qurigan chinor» tagida turgan epizodlik obrazlardan biri Gadoyning so'zlariga ham kata ma'no yuklaydi. Gadoy inson tanasidagi har bir a'zoning o'z vazifasi borligi, odamlar esa ularni mutlaqo adashtirib yuborganligi haqida, bir qaraganda o'ta to'g'riso'z gaplarni gapiradi: «Ho', odamlar! Mayli burnumni oling, ortiqcha ko'z, quloqlarni menga topshiring». Ammo, bu so'zlarning ma'nosini chuqurroq o'ylab ko'rsak, haqiqat oydinlashadi. Bu oydinlikni

Gadoyning o'zi quyidagicha izohlaydi: «-- Olamdagi eng qimmatli jonzot – odam, - deya shohona qiyofada osmonga qo'lini bigiz qildi gadoy. – CHunki unda aql bor, idrok bor. Aqlu idrokniyat, farosatniyam ko'z bilan quloq boyitadi. Biz bo'lsa! CHaqimchimiz!» Bu so'zlar zamondoshlarining loqayd va ahamiyatsizligidan, sotqin va xiyonatkorligidan xunobi oshgan bir bechoraning qalb nidolari bo'lib yangraydi.

Muallif shu tariqa o'quvchini tevarakka ko'zlarni kattaroq ochib eshitishga va nihoyat, ularni insonlarday yashashga, buning uchun kurashishga chaqiradi. Ammo, afsus, ma'naviy qashshoqlashtirilgan xalqning aslida insonday yashamog'ining iloji yo'q. SHuning uchun jondan kechib bo'lsa-da, da'vatkor hayqirayotgan Gadoyning urinishlari bunday muhitda befoyda ekanligi Meshpolvoning tushida namoyon bo'ladi. «CHorrahadagi gadoy olovrang bulutlarga tikilganicha haliyam o'sha joyida o'tirganmish. Faqat endi avvalgiday g'alati-g'alati gaplarni gapirmas, gapiray desa tili, ovqat yoy desa, jig'ildoni yo'q emish. Burnini ham kesib olishganmish. Bularning evaziga tashlab ketilgan bir uyum ko'z, quloq, til, yurak kabilar uning oldida qalanib yotgan emish».

Mustaqillikka erishgunimizga qadar xalqimizning moddiy va ma'naviy jihatdan xudi shu gadoy kabi aftodahol tushgan, haqiqatni gapiray desa tili, nola qilsa, tinglaydigan quloq yo'q edi. Eshitadigan quloqlar, ko'radigan ko'zlar, fikr yuritadigan miyalar, botir yuraklar yulib olingan va o'zligini yo'qotib bir uyum keraksiz narsalarga aylantirilgan edi.

Anvar Obidjon ushbu dostoinda nafaqt ezilgan va talangan xalqni, toptalgan ma'naviy meros va madaniyatning ayanchli ahvolini haqiqiy yuzini ham ochadi. Doston boblaridan birida Sepqishloq qarida bo'lib o'tgan jang rejasining muhokama bayon etilgan. Podshohlik saromimada, amaldoru xizmatkorlar tahlikaga tushib qolishgan. Ammo «zo'r» larning fikrlashlari shu darajada ojizki, ular omma g'azabining qudratini zarracha hisobga olishmaydi, xo'rlangan yurtdagi haqiqiy holatga to'g'ri baho berisholmaydi.

Engilishayotganining sababini o'z adaolatsizliklaridan emas, balki lashkarboshining qo'rqqoqlik va uquvsizligidan ko'rishadi. Uni qanday jazolash yuzasidan qizg'in bahs ketadi. Ular tomonidan bildirilayotgan har bir fikr tubida qo'rqinchli shafqatsizlik bo'rtirib ko'rinib turadiki, bu o'quvchi qalbida dahshatli his-tuyg'ular qo'zg'otadi. Bu holatda hatto shoh ham «seskanib ketadi» va ularni «insof»ga chaqirib, shunday «aqlli» taklif qiritadi: Lashkarboshini «ko'pchilikni oldida sharmanada qilib jazolashimiz yaxshimi?... Kelinglar, adashgan do'stimizni shu erda urib o'ldiraylik». Bu taklifni mute amaldorlar o'sha zahotiyoq qo'llab-quvvatlaydilar: «Olamga kelib, bunday insonparvarlikni ko'rmaganman». Muallif shu tarzda Sepkilshoh va uning «o'ta aqlli» amaldoru xizmatkordlari basharasini ortiqcha izohlarsiz fosh etadi. Ularning aslida hech narsaga arzimaydigan, munofiq, pastkash, bemulohaza, ayni paytda yovuz, qahri qattiq, jallod tabiat kimsalar ekanligini ravshan ko'rsatib o'tadi.

YOzuvchi o'z dostonida hukmdorning butun kirdiokorlarini kulgili, kinoyali tarzda ochar ekan, Vatanni va xalqni ularning zulmidan qutqarish zarurligini o'quvchining qulog'iga qayta-qayta quyib boradi. Agar xalq birlashib, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsa, uning qo'lida haqiqiy qurol o'rniga o'qlov, dastkalla va qozon qopqoq bo'lsa ham, dushman otliqlarga qarshi cho'loq hachirda jang olib borsa ham, erkinlikka, istiqlolga, mustaqillikka erishish muqarrarligi Meshplvon va uning do'stlari obrazlari timsolida ko'rsatib beriladi.

Biz dostonning asosiy konsepsiyasi milliy ozodlik uchun kurash ekanligini kengroq ochib berishga intildik. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, yozuvchi bu konsepsiyani badiiy yoritishda doston janriga xos an'analardan, saj', mubolag'a, o'xshatish, yumor, satira usullaridan, voqeolarni nutqning she'riy va nasriy xillari qo'shilmasidan bayon etish kabi badiiy, ifodaviy vositalardan mahorat bilan ijodiy foydalangan. Qahramonlar ichida ko'rsatish, ularga mos ohanglarda ifoda etish dostoning etakchi

xususiyatlaridan biridir. Masalan, dostondagi markaziy qahramoning «kata jang»ga o'tlanishiga sabab bo'lgan voqea saj' usuli vositasida shunday tasvirlanadi: «Laylak o'tib g'oz keldi, bahor ketib yoz keldi. Jo'jalar xo'rozga, kurtaklar charosga aylandi. Boshhoqlarga o'roq, qovunlar pichoq tegib, jazlar bir qozon, tandirdagi o'tlar alamazon bo'ldi.

Mana shunday fayzli kunlarning birida Meshpolvon o'tin yoraman deb to'nka yaqinida turgan sopol tog'orani sindirib qo'ydi»

. Tog'ora sinishi tufayli enasidan egan dakkisi, shu kichik sabab kata voqealarning boshlanishiga turtki bo'ladi. YOki «ulug' jangga» o'tlangan Meshpolvon – oyoqyalang. U «xachirni etaklab enasining qoshiga bordi, uning shalpildoq kalishiga suqlanganicha bir so'z dedi». YOzuvchi o'quvchi qalbini kuchliroq hayajonga keltirish uchun Meshpolvonning samimiy yumorga boy nutqini an'anaviy dostonga xos she'riy usulda quyidagicha bayon etadi:

Sepkilshohning elatiga qilay yurish,  
Bo'lar endi dunyoda eng kata urush.  
Noqulaydir yalangoyoq jangga kirish,  
Enajonim, kalishingni berib turgin.

...

Qozonqopqoq yuragimni asrab yurar,  
Sepkilshohning kimligini endi ko'rar,  
G'alabaga bita etmay turar,  
Enajonim, kalishingni berib turgin.

Muallif dostonda ena timsolida ko'pni ko'rgan, aql-zakovatli, o'ta kuyunchak keksa ayolning milliy obrazini yaratishga erishgan. Uning nevarasiga aytayotgan nasihatleri, ertaklardagi xalq donishmandlarining nasriy va she'riy nutq qo'shilmasidan bayon etiladi:

Uchrasa ham o'tinsi,  
Salom bergin birinchi,

Seni ko'rgan har sinchi  
Odotsiz deb bilmasin.

...

Tentak so'ksa, do'qlama,  
YOng'oqzorda uxlama.  
Allam o'tsa yig'lama,  
Bardoshlilar o'lmasin.

Anvar Obidjonning «Meshpolvonning janglari» dostoni chuqur milliy ruhda yozilgan. Dostondagi ijobiy qahramonlar zukkoligi, qo'rqmasligi, tadbirkorligi, o'ziga xos qiyofasi, ma'naviy go'zilligi bilan kitobxon qalbidagi mustahkam joy oladi. Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, muallif o'z ijobiy qahramonlarini butunlay benuqson, hamma ishlarni bajarishga qodir deal inson sifatida ko'rsatishga harakat qilmagan. Qahramonlardagi ba'zi kamchiliklar va nuqsonlarining paydo bo'lish sabablarini, ular bartaraf etish yo'llarining badiiy asoslanishi bu qahramonlarning kitobxonlar ko'z o'ngida jonli va hayotiy shaxslar bo'lib gavdalanib turishini ta'min etgan.

«Meshpolvonning janglar» - zavq-shavq bilan o'qiladigan juda qiziq doston. Bu asar yosh avlodni «toptalgan orzu sha'ni uchun, tahqirlangan dunyoni» go'zal dunyoga aylantirish uchun kurashish ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

## Xulosa

Bugungi shiddatli asrimizda inson ma'naviyati masalalari eng dolzarb mavzulardan biridir. Albatta bugungi zamondoshlarimizning ma'naviyat masalalarini insoniylikning eng muhim sharti deb qabul qilish tabiiy holdir, zero «... ma'naviyat insonni ruhan poklash, qalban ulug'lashga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch uning qarashlarining mezonidir».<sup>6</sup>

Darhaqiqat adabiyot-inson ruhiyati chashmalaridan biri sifatida biz unga hamisha muroaat sezamiz. Bugungi kunda ijodkorlarimizdan talab etilayotgan masala «inson bag'rida yashiringan olamlarni», uning ruhiyatida kechayotgan xolatlarni haqqoniy, keng ko'lamda tasvirlashdan iboratdir. SHoir yoki yozuvchi inson ruhiyatining turli tovlanishlarini aks ettirmas ekan, uning ijodi hech qachon yuqori saviyali asarlar qatoridan joy olmaydi. Ilg'or fikrli odamlarga xos sifatlar bevosita ruhiyat bilan bog'liq bo'lgani uchun ham ma'naviyat tarbiyasi mamlakat miqyosida muammoga aylangan. Sog'lom ma'naviyatni tarbiyalash, ko'proq, maktab adabiy ta'limi zimmasiga tushadi, chunki adabiyotning asosiy materiali – inson. Inson tirik mavjudotlar ichida eng murakkab hisoblanadi. Inson dunyoga kelar ekan, tabiatning xilma-xil, takrorlanmaydigan hamda, aksincha, bir-biriga mushtarak bo'lgan san'at durdonalarining o'xshash va ayro jihatlarini anglab boradi. Ular orqali fikr doirasi, ongi takomillashib, sayqallashib bir qolipda shakllanadi.

Inson bu g'aroyib go'zalliklarning shakli-shamoyilini ko'ngil atalmish nozik gulshanining bir nuqtasida jamlab, yangi g'oya, yangi tasvir ob'ektini yaratadi. Modomiki shunday ekan, inson-san'at va adabiyotning bosh predmeti, ya'ni tasvir oyu'ekti sanaladi.

Adabiy asarlarda inson bilan birga tasvirlanadigan eng muhim ob'ektlardan biri bu tabiatdir. Biz qaysi ijodkorlarning ijodini kuzatmaylik,

---

<sup>6</sup> I.A. Karimov «YUksak ma'naviyat va engilmas kuch». T. «Ma'naviyat» 2008. 19-b

barchasida tabiat, zamon va makon undagi turli voqealar tasvirlangan asar kompozitsiyasida aniq g'oyaviy maqsadni ifodalab, qahramonning xarakteri, xulq atvori, harakat qilayotgan tabiiy muhit va voqea hodisalarning realligini ta'minlaydi.

Bolalarning sevimli shoiri Anvar Obidjon ijodida ham tabiat bilan bog'liq bo'lgan bir qancha tasvir yo'nalishini kutishimiz mumkin.

Anvar Obidjon – chin ma'nodagi vatan kuychisi. U o'zi anglagan haqiqat yoki hayotiy voqealarni bola qalbida sodda vas amimiy, hayajonli tarzda etkazishga harakat qiladi. SHoir «Meshpolvonning janglari», «Alamazon va uning piyodalar» kabi dostonlarida hukmdorning butun kirdiokorlarini kulgili, kinoyali tarzda ochar ekan, Vatanni va xalqni ularning zulmidan qutqarish zarurligini o'quvchining qulog'iga qayta-qayta quyib boradi.

Fikr va tuyg'u, mazmun va ehtiros she'riyatning hamda poetik mahoratning asosi. SHuningdek ular bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Fikr qancha original bo'lmasin, ustalik, yuksak mahorat bilan ifodalanmasa, kitobxonni hayajonlantirmaydi. Ijodkor biror fikrni badiiy ifodalashda, badiiy tadqiqi etishga intilar ekan, uni o'z badiiy tafakkuri, dunyoqarashi atrofni his qilishi va idrok etishi doirasida beradi. O'ziga xos usullar, badiiy vositalarni qo'llaydi. Anvar Obidjonning ko'pchilik she'rlari shunday rang-barang, betakror usullar samarasidir. U o'z fikrlarini ifodalash uchun goh monolog, goh diolog, goh hazil-mutoyiba, goh maktub, goh tush kabi shakllarda murojaat etadi.

Anvar Obidjon ijodining etakchi xususiyati haqida gap ketganda, eng avvalo, erishgan yutuqlari bilan xotirjamlikka berilmasligi, behalovat izlanuvchanligini alohida tilga olish joiz. Ijodiy xotirjamlikka berilish, o'z qobig'idan tashqari chiqa olmaslikni badiiy mahorat kushandasi deb bilgan shoir badiiy ijodda ham o'z e'tiqodini qat'iy amal qiladi.

Xullas, o'zbek bolalar adabiyotining ravnaqida Anvar Obidjonning o'z o'rni va o'z ovozi bor. Ma'naviyat va ma'rifatmasalalariga davlat miqyosida 'tibor kuchaygan bugungi kunda Anvar Obidjonning ibratli hayoti va boy ijodidan, unda ko'tarilgan g'oyalardan saboq, ibrat olish ham ilmiy, ham ma'rifiy ahamiyat kasb etadi.

## Adabiyotlar ro'yxati

1. I.A. Karimov. YUksak ma'naviyat engilmas kuch. T. «SHarq»2008.
2. I.A. Karimov. «Istiqlol va ma'naviyat» «O'zbekiston» 1994 y
3. I. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T. «O'zbekiston» 1997.
4. B. Qosimov. Milliy uyg'onish davri adabiyoti. T. 1998
5. Z. Rahim. «Ravon tuyg'ular» Toshkent. «SHarq yulduzi» 1987 y 6-son
6. H. Imomberdiev. «Tirishqoqning tirnog'i» T. 1987 y
7. I. Po'latov. «Qayta yaratish mahorati» «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» 1987 y 27 noyabr
8. R. Fayz. «Uyga vazifa» T. «O'zbekiston» 1990 y
9. S. Barnoev. «Dil ko'prigi» Jahon adabiyoti. Journ. 1998 y dekabr
10. E. Baxt. «Ko'ngil taxti sizga» «Oila va jamiyat» gazetasi. 2000 y
11. K. Turdiev. «Bolalar adabiyotining fidoyisi» (To'plam) 2004 y
12. R. Barakaev. Bolalikning etti fasli« «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi. 2004 y. 30 iyul.
13. Y. Yo'ldoshev. «Bolalarga bola bo'lib yozmoq bor» «O'zbekiston adabiyoti va san'ati » gazetasi. 2009 y. 16 noyabr
14. M. Mirzaev. «Bola ko'zi bola so'zi» «SHarq yulduzi» 1983 y. 12-son.

15. S. Matjon. «YUrt sevgisi yurakka nayvand» «kitob o'qishni bilasizmi» T. «O'qituvchi» 1993 y
16. S. Matjon. «Ikki el ardog'ida» T. «Musiq» nashriyoti. 2009 y
17. M. Jumaboev. «Bolalikning oddiy, sodda, hayotiy talqini» Badiiy jilolar». T. 2006 y.
18. K. Muslimova. Anvar Obidjon ijodida an'ana. «Til va adabiyoti ta'limi» jurnali. 2007 y
19. B. Ashurov. «Anvar Obidjon ijodida Vatan madhi» «Til va adabiyot ta'limi» jurnali. 2005 y. 5-son.
20. A. Obidjon. «O'rni borning, qadri bor» «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi. 2009 y 16 noyabr